



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy
instituti

O'QUVCHILARDA "HUQUQBUZARLIKKA QARSHI
IMMUNITET"NI SHAKLLANTIRISHDA "MAKTAB – OTA-ONA -
MAHALLA" HAMKORLIK ZANJIRINI YARATISH BO'YICHA USLUBIY
TAVSIYALAR

Toshkent-2024

O'quvchilarda "huquqbuzarlikka qarshi immunitet"ni shakllantirishda "maktab-ota-ona-mahalla" hamkorligi zanjirini yaratish bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Toshkent-2024

Uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining ota-onalari hamda keng kitobxonlar ommasiga bag'ishlangan.

Mualliflar:

Boqiyev Farxod Esanovich, Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri o'rinbosari, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Ibraimov Xolboy Ibragimovich, T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik.

Tojiboyeva Xilola Maxmutovna, T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, professor.

Qaraxonova Lobar Musaxonovna, T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti bo'lim mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Taqrizchilar:

1. Muhammadjon Quronov, pedagogika fanlari doktori, professor.

2. Aziza Muhsiyeva, pedagogika fanlari doktori, dotsent.

Mazkur Uslubiy qo'llanma T.N.Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti Kengashining 2024-yil 30-avgustdagi 9/3.2-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mundarija:

Kirish.

I. Huquqbuzarlik va uni profilaktikasi.

II. O'quvchilarning qonunni buzish holatlarida ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatini rivojlantirish masalalari.

III. O'quvchilarda huquqbuzarlikka qarshi immunitetni shakllantirishda maktabning ahamiyati.

IV. Huquqbuzarlikka qarshi kurash ishlarida oilalar, mahallalar, ta'lim muassasalari ijtimoiy hamkorligini tizimli tashkil etish bo'yicha tavsiyalar.

V. Ehtiyot bo'ling kiberhujum! (ota onalar uchun eslatma)

Kirish.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlar o'rtasida ommalashgan ijtimoiy tarmoqlarni tahlil qilib, ularning zararli ta'siridan himoyalash va ijobiy tomonidan foydalanish bo'yicha ota-onalar va o'quvchilarga sodda tilda qo'llanmalar yaratish muhimligi dolzarb bo'lib turibdi.

O'quvchi-yoshlarni maktabga moslashish va kitobni sevishtga o'rgatish, yaxshi xulqli bo'lish, atrofida-gilar bilan muloqot qilishni o'rganish va bilim olishga kuchli ishtiyoqni shakllantirish, kasb tanlash, jamiyatga moslashish, katta hayotga qadam qo'yishda farzandlarga qanday yo'l-yo'riq berish zarur, degan savollar yuzasidan ota-onalar uchun ilmiy asoslangan tavsiyalarga ehtiyoj sezilmoqda.

A. Avloniy ta'kidlaganidek: "Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo sadoqat, yo falokat masalasidir"¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mazkur masala yuzasidan o'z munosabatini bildirib shunday deydi: "Biz bir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz lozim: ota-ona, jamiyat e'tiboridan chetdan qolgan bola oilaga quvonch va foyda o'rniga, faqat tashvish keltiradi. Shu bois, bola tarbiyasi, yoshlar bilan ishlash biz uchun eng muhim va dolzarb vazifa bo'lib qolishi shart"².

Yuqoridagilardan shunday xulosa kelib chiqadiki, oilada tarbiya masalasida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar tuzatib bo'lmas salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi va bu o'z navbatida, jamiyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'quvchilarda huquqbuzarlikka qarshi immunetni hosil qilish mexanizmlari

Fuqarolik jamiyati rivojlanib borgan sari, asrlar davomida o'z davrining mutafakkir olimlari tomonidan ilgari surilgan qator fikrlar davlatlarning milliy huquq tizimida va undan keyin turli xalqaro konvensiyalar va paktlarda huquqiy qadriyat sifatida o'z ifodasini topmoqda. Har bir inson o'zi istiqomat qilayotgan joyda tinch va osoyishta yashashi uchun shart-sharoit yaratish, uning qonuniy huquq va erkinliklarini, xususan, hayoti, sog'lig'i va mol-mulkini huquqbuzarlarning g'ayriqonuniy tajovuzlaridan himoya qilinishiga erishish ana shunday huquqiy qadriyatlardan biri hisoblanadi.

¹ Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T., 2006. – B. 38.

² Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. –T., 2017. – B. 135.

Aslida huquqbuzarlik fenomeni davlat va huquq institutlari paydo bo'lgan vaqtdayoq vujudga kelgan va har doim ular bilan birgalikda mavjud bo'lib qoladi, desak yanglishmagan bo'lamiz. Faqatgina huquqbuzarlik ko'lami muayyan makon va zamonda o'zi uchun yaratilgan "shart-sharoitlarga" bog'liq ravishda yuqori yoki past darajada namoyon bo'ladi. Shu sababli, huquqbuzarliklarga, ayniqsa, uning xavfli ko'rinishi – jinoyatchilikka qarshi kurashish tarixan har bir jamiyat va davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tabiiyki, kishilik jamiyati tarixan o'zgaruvchan hodisa. Ayniqsa, oxirgi yuz yilliklar davomida insoniyat misli ko'rilmagan darajadagi tezkor taraqqiyot va rivojlanish bosqichini boshidan kechirmoqda. Fan-texnika taraqqiyoti, aholining huquqiy ongi va madaniyati, turmush darajasi, mehnat unumdorligi ortib bormoqda. Biroq, qashshoqlik, savodsizlik va ishsizlik darajasining pasayishi kutilganidek huquqbuzarliklar ko'laminin kamayishiga olib kelmadi, balki ushbu soha vakillari ham taraqqiyot yutuqlaridan barcha qatori foydalana olishlari ma'lum bo'ldi.

Bundan kelib chiqadiki, potensial huquqbuzar – bu o'z muammolarini, xususan, moddiy boyliklarga bo'lgan ehtiyojini boshqalar hisobiga hal etishni istaydigan odamgina emas. Bunday toifadagi shaxslar doirasining paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan omillar ham, afsuski, juda ko'p.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, jinoyat qonunchiligini takomillashtirib borish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda eng yangi usul va vositalardan foydalanish jinoyatchilik darajasini kamaytirishda kutilganidek samara bermayapti. Deyarli barcha davlatlarning jinoyat qonunchiligida takroran sodir etilgan va retsidiv jinoyatlar haqidagi qoidalarining mavjudligi va bu turdagi jinoyatlarning tez-tez sodir etilayotganligi jinoyat uchun berilgan jazo huquqbuzarlarni axloqan qayta tarbiyalash vazifasini juda qiyinchilik bajarayotganligidan dalolat beradi.

Ko'rsatib o'tilgan omillar butun dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ishlarga bo'lgan yondashuvni tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi, deyish mumkin. Bundan keyin jinoyatchilikka qarshi kurashish faqatgina sodir etilgan jinoyatlarni ochish, huquqbuzarlarni topish, qonuniy jazo tayinlash va uni ijro etishdan iborat bo'lib qolishi mumkin emas. Hatto, sodir etilishi rejalashtirilayotgan huquqbuzarlikning oldi olinganda ham bu vazifani bajarishga juda kech kirishilgan deb hisoblash kerak bo'ladi. Shu tariqa dastlab jinoyatchilikka qarshi kurashish

faoliyatining kichik elementi sifatida paydo bo'lgan huquqbuzarliklar profilaktikasi keyinchalik jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatidan ham yuqori turuvchi alohida va keng qamrovli faoliyat yo'nalishiga aylandi.

Huquqbuzarlik profilaktikasi va o'quvchilarda huquqbuzarlikka qarshi immunetni hosil qilish asosiy vazifasi

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonuniylikni mustahkamlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish va bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rishdan iborat. Shuningdek, turli davlatlarda ushbu jarayonni tashkil etish ko'lamidan kelib chiqqan holda mazkur vazifalar yanada kengaytirilgan.

Huquqbuzarlik profilaktikasi va o'quvchilarda huquqbuzarlikka qarshi immunetni hosil qilish bo'yicha xorij tajribasi

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya kabi davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, huquqbuzarliklar profilaktikasi faqat keng qamrovli faoliyat yo'nalishi sifatida tashkil etilgan taqdirdagina yaxshi samara berishi mumkin. Bu esa, mazkur jarayonda barcha darajadagi davlat va nodavlat tuzilmalar hamda fuqarolarning keng ko'lamdagi ishtirokini talab etadi. Ayni paytda ushbu zaruratni tushunib yetgan holda mazkur davlatlar aholisi ham huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ongli ravishda ishtirok etish istagini bildirdilar.

Yuqoridagi davlatlar tajribasini ommalashtirgan holda, bugungi kunga kelib Shimoliy Amerika va Yevropadagi boshqa davlatlarda, Mustaqil davlatlar hamdo'stligiga a'zo davlatlarning aksariyatida hamda Janubiy-sharqiy Osiyoning rivojlanayotgan davlatlarida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni bajarishga kirishildi, davlat organlari va jamoatchilikning bu boradagi harakatlarini muvofiqlashtirish va yo'naltirish uchun maxsus qonunlar, davlat dasturlari qabul qilindi.

Xorijiy davlatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda uni turli yo'nalish va hududlar bo'yicha maxsus dasturlar orqali tashkil etishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda politsiya yoki ichki ishlar idoralarining ishtiroki minimal darajada bo'lib, amalga

oshirilayotgan dasturlarning ijrosi, asosan, aholining ijtimoiy faolligi va fuqarolik mas'uliyatiga asoslanadi. Shuningdek, ushbu dasturlar huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishning klassik usullari – politsiya patruli, targ'ibot va tushuntirish ishlariga nisbatan ancha amaliy va samarali ekanligi ma'lum bo'lmoqda.

Xususan, Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Germaniya, Avstraliya kabi davlatlarda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda "Qo'shnilar nazorati" (neighborhood watch), "Sindirilgan oynalar" (broken windows), "Jinoyatchilikni to'xtatuvchilar" (crime stoppers) kabi dasturlar, shuningdek muayyan toifadagi shaxslar, masalan bolalar va o'smirlarga mo'ljallangan yoki jinoyatchilik darajasi nisbatan yuqori mintaqalarga tatbiq etiladigan ("Weed&Seed", "Safety City") dasturlar samarali tatbiq etilmoqda.

Ushbu dasturlar orasida AQSHda qabul qilingan "Sindirilgan oynalar" dasturi boshqa bir necha davlatlarda ham joriy etilgan. Mazkur konsepsiyaning asoschilari J.Vilson va G.Kelling bo'lib, ular o'z g'oyalari mazmunini quyidagicha ifodalaydilar: "Agar binoning bitta oynasi singan bo'lsa va uni hech kim ta'mirlamasa, qisqa vaqt ichida binoning barcha oynalari ham sindiriladi, binoning o'zi to'liq harobaga aylanadi va bu joy jinoyatchilar makoniga aylanadi".

Kengroq qilib aytganda ushbu konsepsiya mualliflari ko'chalardagi tartib va ozodalikning mavjud emasligi deviant hulq-atvorning namoyon bo'lishiga olib kelishini ta'kidlaydilar. Ya'ni tashqi tartibsizlik (oynalar, elektr chiroqlarining singanligi, qarovsiz tashlab ketilgan avtomobillar, binolarning tashqarisi va yo'llarning uzoq vaqt ta'mirlanmaganligi, chiqindilarning ko'chaning istalgan joyiga tashlab ketilganligi) o'sha hududda jamoatchilik nazoratining yo'qligi, axloqsizlik va huquqbuzarlik uchun ta'sir choralari qo'llanilmasligi hamda davlat organlari va o'zini o'zi boshqarish tuzilmalari mazkur holatga beparvo munosabatda bo'lishlaridan dalolat beradi. Bunday belgilar esa, odamlarning ongostida ushbu hudud nazorat ostidan tashqari, bu yerda davlat va jamoat hokimiyatining kuchi yo'q degan fikrni shakllantiradi. Agar bitta oyna singan va bu hech kimni bezovta qilmayotgan bo'lsa, demak ikkinchi, uchinchi va boshqa oynalarni ham sindirish mumkin. Shu tariqa, odamning ichidagi yashirin deviant xulq-atvor uning xatti-harakatlariga ko'chadi.

Mazkur gipotezaga asoslangan holda, ushbu dasturda aholi punktlarida tozalik va tartibga rioya qilinishini ta'minlash, qarovsiz avtomashinalar, bino va inshootlar paydo bo'lishiga, chiqindilarning

to'planib qolinishiga yo'l qo'ymaslik choralari belgilanadi. Bunda dastlab fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari doimiy ravishda aholi punktlaridagi holatni o'rganib boradilar, asta-sekinlik bilan aholining o'zi ushbu dasturning ham ijrochisi, ham nazoratchisiga aylanadi. Dasturning o'zi esa aholining kundalik turmush tarziga singib boradi.

Tadqiqotchi L. Montgomerining kuzatuvlariga ko'ra, 1993-yildan 1995-yilgacha Nyu-Yorkning bir necha tumanlarida, asosan, mazkur dasturning samarali tashkil etilishi natijasida odam o'ldirish jinoyatlari o'rtacha 39 %, kvartiralarga bostirib kirish holatlari 25 %, avtomobillarni olib qochish holatlari 36 % ga kamaygan.

Ushbu dastur asta-sekin yanada keng ko'lamda tatbiq etilib, shaharsozlik normalariga ham ta'sir eta boshladi. Xususan, loyiha tashkilotlariga bino va inshootlarni joylashtirishda, yerosti o'tish yo'llari, ko'priklar qurishda qarovsiz "oraliq joylar" qolib ketishiga, yo'laklarning tabiiy va sun'iy yorug'lik manbalaridan to'silib qolishiga yo'l qo'ymaslik kabi talablar qo'yildi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda maxsus dasturlar bilan bir qatorda, bir qarashda oddiy ko'ringan boshqa tashkiliy chora-tadbirlar ham yuqori samara berishi mumkin. Xususan, o'tgan asrda Yevropaning qator davlatlarida yo'lovchilar tomonidan havo kemalariga qurol-yaroq va boshqa xavfli buyumlar olib kirilmasligini qattiq nazorat qilish orqali, havo kemalarini olib qochish bilan bog'liq jinoyatlar sonining keskin kamayishiga erishildi. Shuningdek, futbol musobaqalarida har ikki jamoa muxlislarining alohida sektorlarda o'tirishlari va turli eshiklar orqali kirib-chiqishlarini yo'lga qo'yish orqali ehtirosiga berilgan muxlislar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzurliklar soni sezilarli darajada kamaydi.

Aholining jamiyatda yuz berayotgan har bir hodisaga nisbatan o'zining faol munosabatini bildirishi, xususan, yon-atrofdagi xonadonlarda yuz berayotgan notinchlik, ko'chada shubhali shaxslar paydo bo'lganligi yoki sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga darhol xabar berishi, shuningdek uy-joy va avtomobillarni qarovsiz qoldirmaslik, juda ko'p miqdordagi naqd pul yoki qimmatbaho buyumlarni bank va lombardlarda saqlash odatining shakllanganligi ham potensial jabrlanuvchilar sonining kamayishiga xizmat qilmoqda.

Shu o'rinda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bo'yicha mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovlar ishlar haqida

alohida ta'kidlash joiz. Bir necha o'n yilliklarga qadar qaysi joyda odam nima qilishni istasa va shuni bajara olsa, bu yerda demokratiya bor, degan juda tor qarashlar ilgari surilgan davlatlardan farqli ravishda, bizning xalqimiz azaldan "Bir bolaga – yetti mahalla ota-ona", "Kasallikni davolagandan uni oldini olgan afzal" kabi naqlarga amal qilib yashaydi. Odob-axloq qoidalariga rioya qilish, yon atrofdagi odamlarga nisbatan mehr-oqibatli bo'lish, ozgina bo'lsa-da nomaqbul ish qilishdan uyalish hissi oilada farzand tarbiyasining asosini tashkil qilib keladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish nafaqat davlat organlarining, balki shu jamiyatning a'zosi hisoblangan har bir insonning vazifasidir. Eng avvalo, o'zimiz, oila a'zolarimiz va jamiyat oldidagi mas'luliyatni doimo his qilib yashash, atrofdagi hodisalarga beparvolik bilan munosabatda bo'lmaslik, tinch va osuda hayotimizning qadriga yetib yashash barchamizning kundalik hayot tarzimizga aylanishi zarur.



HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINING 7 SHARTI!

Eslab qoling:

- ❖ o'smir farzandingiz bilan huquq, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish haqida suhbatlashing
- ❖ farzandingizda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltiring
- ❖ farzandingiz bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlang va o'rganing, bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'ring;
- ❖ farzandingiz tarbiyasi bilan jiddiy shug'ulaning (ayniqsa balog'at yoshiga yetganda do'stona munosabatda bo'ling)
- ❖ atrofidagi do'stlarini kimligini va qandayligini biling.
- ❖ dilbandingiz bo'sh vaqtlarida nimalar bilan shug'ullanayotgani va kimlar bilan suhbatlashayotganini nazorat qiling;
- ❖ huquqbuzarlikning oxiri qayerga borib taqalishini va natijada kim bo'lib qolish mumkunligi haqida tushuncha va tavsiyalar bering;

Huquqbuzarlikning jamiyatga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan ommilarning jihatlari



Bola tarbiyasida oila muhitining ta'siri



Ota-ona farzand bilan munosabatni mustahkamlashi zarur. Huquqbuzarlikning oldini olishda katta yordam beradigan omil bu ota va onaning farzand uchun beradigan mehri va tarbiyasidir. Sog'lom muhitda ulg'aygan farzand kelajakda katta yutuqlarga erishadi.

Farzandingizda kitobga bo'lgan mehrni uyg'oting.

Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni maqsadli va mazmunli qilib belgilang.

Farzand tarbiyasini e'tiborsiz qoldirsa nimalar bo'ladi?

- ❖ *Farzandning ota-onaga bo'lgan mehri, ishonchi yo'qoladi*
- ❖ *Farzand ongida turli xil chunarsiz bo'lgan fikrlar, buzg'unchi g'oyalar shakllanadi*
- ❖ *Atrofidagi do'stlari, suhbatlashadigan insonlari tarbiyasiz va manaviyatsizlarni tashkil qiladi*



***Huquqbuzarlik, kiber jinoyat sodir bo'lish
havfi 2,5 baravarga ko'payadi.
Jamiyatda jinoyatchilik ishlari sodir
bo'lishi 60 foizga ortadi.***



2. O'quvchilarning qonunni buzish holatlarida ota-onalarning tarbiyaviy mas'uliyatini rivojlantirish masalalari

Bolalar - oila va jamiyatning ko'zgidir. Bolalarning yosh qalbiga hamma narsadan ko'ra o'rnak ko'rsatish kuchli ta'sir etadi, ota-onalarning ko'rsatadigan o'rnagi (ibrati) esa ularning qalbida boshqa hamma kishilarning o'rnagiga qaraganda chuqurroq va mustahkamroq iz qoldiradi.

Oilaviy tarbiya doimo mavjudligi, ko'rsatmaliligi va serjiloligi bilan ajralib turadi. Unda odobga doir tadbirlarni bolaga to'g'ri o'rgatish, maslahat berish, kattalar tajribasigina emas, balki oilaning yashash tarzi, muhiti, ota-onalarning kasb hunari, oila a'zolarining ma'naviy- ruhiy munosabatlari katta rol o'ynaydi.

Farzand barcha oila a'zolari o'rtasidagi hamkorlikni takomillashtiradi, avvalo o'yin faoliyati jarayonida, keyinchalik dars tayyorlashda, kasb-hunar tanlash va nihoyat oilaviy xo'jalik yuritishda ota-onalar bilan birga bo'lib, ularni hamjixatlikka, ahillikka o'rgatadi. Farzand ota-onasining keksaligida madadkor, tayanch va suyanch bo'lishini barchamiz bilamiz, faqat buning uchun unga o'z vaktida yoshlikdan yaxshi tarbiya berish, ma'naviy olamini boyitish lozim. Demak, oilaning mustaqil hayot yo'lidan tetik odim tashlashi uchun unda sog'lom va aqlli farzandlar dunyoga kelishi kerak va ota-ona uning munosib tarbiyalanishini uzlari uchun eng muqaddas va sharaflig, qolaversa o'ta mas'uliyatli vazifa, deb bilishlari

lozim. Oilaning o'z tarbiyaviy vazifasini ko'ngildagiday yaxshi bajara olishi uchun bizning mamlakatimizda barcha shart-sharoitlar yaratib qo'yilgan.

Bolalar tarbiyasida otaning qattiqqo'lligi, onaning mehribonligi hal qiluvchi omillardandir. Oiladagi sog'lom muhit, mehr-muhabbat, oqibat, o'zaro hurmat va totuvlik ota-onaning bilim saviyasi, iymon e'tiqodi, dunyoqarashining boyligi, pul va moddiy boyliklarga munosabati va shu kabi juda ko'p narsalarga ham bog'liq.

Farzand tarbiyasiga ota-ona birdek mas'ul!

Agar ota-onalar maktabga va o'qituvchilarga to'g'ri munosabatda bo'lishlari muhimligini, bolalari oldida ularning obro'yini saqlash zarurligini jiddiyroq o'ylab ko'rsalar maqsadga muvofiq bo'lardi. Shu bilan birga farzandlarimizni zararli g'oya va odatlardan asrash ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak va bunday holatlarni oldini olish maqsadida qonunchiligimizda voyaga yetmaganlarni turli zararli odatlardan saqlashga qaratilgan normalar mavjudki, xususan ularning kompyuter va internet tarmog'idan foydalanishda ota-onalarning nazoratini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Masalan, 18 yoshga to'lmagan shaxslarning tungi vaqtda dam olish maskanlarida ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi kishilar kuzatuvisiz bo'lishi ma'muriy javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan. Bu ota-onalarning farzandlariga bo'lgan mas'uliyatini yanada oshirishga undaydi.

Farzandingizni eshiting!

O'zbekiston Respublikasi Oila konunchiligida voyaga yetmagan bolalarning bir qator shaxsiy nomulkiy huquqlari ko'rsatilgan, ya'ni har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ularning g'amho'rlikidan foydalanish, ular bilan birga yashash huquqiga ega. Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z man'faatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega. Shuningdek, ota-ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar.

Ota-onaning bola oldidagi teng huquqlilari unga g'amho'rlik qilish, ta'lim tarbiya berish, uni parvarish qilish va x.k. iboratdir. Bolaning oldida o'z huquqlarini bajarish ota-ona uchun faqat ahloqiy qoida bo'lib qolmay, balki konstitutsiyaviy huquq va burchdan biridir.

Ota-onalar o'z bolalariga nojo'ya munosabatda bo'lishlari juda yomon oqibatlarga olib keladi. Ota va onalar mulohaza bilan ish qilishlari, bolalar

bilan bo'lgan munosabatlari to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini o'ylab ko'rishlari, ular bilan bo'lgan muomalada o'ylamasdan ish qilmasliklari kerak.

Bolaga tarbiya berishni hohlashning o'zi mutlaqo kifoya qilmaydi. Bolani tarbiyalash uchun bilim va mahorat ham bo'lishi kerak. Agar ota-onalar bolalarini tarbiyalashdagi o'z vazifalarini o'tashdan bosh tortsalar, bolalariga shavqatsizlik bilan muomalada bo'lsalar, g'ayri ahloqiy hayot kechirib, bolalariga salbiy ta'sir ko'rsatsalar, ota-onalik huquqidan mahrum qilinadilar.

Farzandlarimiz bor ekan, ana shunday fidoyi ota-ona bo'lish har birimizning burchimizdir.

3. O'quvchilarda huquqbuzarlikka qarshi immunitetni shakllantirishda maktabning o'rni va ahamiyati

Maktabda xulq-atvor qoidalarini shakllantirish kerak, chunki busiz yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash muammolarini samarali hal qilish mumkin emas. Shu munosabat bilan quyidagilar zarur:

maktab hayoti uchun normalar to'plamini yaratish;

maktab o'quvchilariga o'z huquqlarini o'rganish va ulardan qanday foydalanishni o'rganishga yordam berish, buzilgan taqdirda ularni himoya qilish;

o'quvchilarga har bir shaxsning shaxsiy erkinligi va mas'uliyati o'rtasidagi munosabatni ko'rishga yordam berish;

maktab o'quvchilariga nizolarni qonuniy yo'l bilan hal qilishni o'rganishga yordam berish;

huquqiy madaniyat ko'nikmalarini rivojlantirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, huquqbuzarlikka moyil voyaga yetmaganlar bilan ijtimoiy ish olib borish quyidagi vazifalarni hal qilishi kerak:

ta'lim, muloqot va boshqalardagi muammolarning sabablarini aniqlash maqsadida kompleks tibbiy-psixologik va pedagogik diagnostikani amalga oshirish;

- har bir bola uchun optimal ta'lim usulini tanlash va uning shaxsiyatiga psixokorrektiv ta'sir ko'rsatish choralarini tanlash;

- bolalar va o'smirlarga individual yo'naltirilgan pedagogik, psixologik, ijtimoiy, huquqiy va tibbiy yordam ko'rsatish;

- xavf ostidagi guruhlar;
- ota-onalarga yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarga maslahat yordami;
- reabilitatsiya va axloq tuzatish ishlari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarga uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish.

Biz quyidagi harakat yo'nalishlarini ta'kidlaymiz:

1. Diagnostika faoliyati:

xulq-atvorida muammolari bor o'quvchilarni aniqlash va ularning xulq-atvorini tuzatish ishlarini o'z vaqtida tashkil etish;

o'quvchilarning rivojlanish va ta'lim darajasini o'rganish;

turli vaziyatlarda o'quvchilarni kuzatish;

o'quvchilarning tengdoshlar guruhida, oiladagi mavqeini aniqlash;

mos yozuvlar guruhlari va o'quvchilarning jamoadagi o'rnini aniqlash uchun sotsiometrik tadqiqot o'tkazish;

o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'zini nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini aniqlash;

xulq-atvor va muloqotdagi ijobiy fazilatlar va kamchiliklarni aniqlash;

o'quvchilarning qiziqishlari va moyilliklarini o'rganish va aniqlash;

o'quvchining xarakteri va temperamentining xususiyatlarini o'rganish;

xulq-atvor va muloqot motivlarini aniqlash;

o'quvchilarning sog'lig'ini hisobga olgan holda;

o'quvchilarning ota-onalari (vasiylari) bilan aloqasini kuzatish.

2. Yakka tartibdagi tuzatish ishlari:

xulq-atvordagi kamchiliklarni tuzatish bo'yicha individual maslahatlar;

individual xususiyatlarni, o'quvchilarning ta'lim darajasini o'rganish va o'rganilgan narsalarga asoslanib, keyingi pedagogik ta'sirning aniq vazifalari va usullarini aniqlash;

izchil ishlash uchun o'quvchining xatti-harakati, muloqoti va jamoadagi mavqeini psixologik kuzatishlar kundaligini yuritish;

sinf rahbari, ijtimoiy pedagog psixolog, maktab ma'muriyatining xatti-harakatlarini tuzatishni talab qiluvchi o'quvchilar bilan individual ishi;

o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratish, bo'sh vaqtini oqilona tashkil etishga ko'maklashish (to'garaklar, qiziqish klublari, sport seksiyalari va boshqalar);

o'quvchilarni faol ijtimoiy ishlarga jalb qilish;

o'qituvchi, sinf o'qituvchisi, psixolog, ijtimoiy ishchi, maktab ma'muriyati tomonidan o'quvchining sinfda va darsdan tashqarida xatti-harakatlarini nazorat qilish;

aloqa bo'yicha treninglar o'tkazish;

psixologik yengillik mashg'ulotlarini o'tkazish;

badiiy adabiyot o'qishga jalb etish, kutubxonaga yozilish;

individual suhbatlar, qiziqarli odamlar bilan uchrashuvlar.

3. Oila bilan ishlash:

o'quvchining oiladagi ijtimoiy mavqeini o'rganish;

ota-onalar yig'ilishlarida o'qituvchilarning nutqlari;

jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish masalalari bo'yicha suhbatlar o'tkazish uchun oilalarga tashrif buyurish;

voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha inspektsiya, prokuratura va tergov organlari xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazish;

ota-onalar uchun individual maslahatlar, ishonch telefonini tashkil etish;

huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha kengashni oila bilan ishlashga jalb etish;

ota-onalarni ota-onalar yig'ilishlariga, o'quvchilar bilan suhbatlarga jalb qilish, maktab miqyosida o'tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etish;

ijodiy uchrashuvlar, mavzuli ota-onalar yig'ilishlarini o'tkazish;

4. Oilalar, mahallalar, ta'lim muassasalari ijtimoiy hamkorligini tizimli tashkil etish bo'yicha ilmiy amaliy tavsiyalar

Mustakillikning qadriga yetish, uni avaylab-asrash, mustakillik sharofati bilan vujudga kelgan huquqiy demokratik davlat tizimini rivojlantirish, mustahkamlash va takomillashtirish har bir inson oldida turgan muhim burch va vazifadir.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, madaniy-ma'rifiy jihatdan yetuk insonlar qilib tarbiyalash ishi birinchi navbatda oiladan boshlanadi. Bu borada barkamol avlodni tarbiyalashda ota-ona, mahalla-ko'y, ta'lim muassasalarining ahamiyati kattadir.

Hozirgi davrda qo'lga kiritgan muhim yutuqlarimizdan biri ta'lim-tarbiyada umuminsoniy, milliy, ma'naviy qadriyatlarning ustivorligiga erishilganligidir. Bu yosh avlodga boy tarixiy, milliy, ma'naviy merosni singdirish hamda asrlar davomida shakllangan xalq pedagogikasi an'analari asosida ta'lim-tarbiya berish demakdir. Ota-bobolarimiz

farzandlariga ilm o'rgatish bilan birga farzandalariga avloddan-avlodga o'tib kelayotgan milliy ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirganlar. Ular ilmga chanqoq, hunar o'rganishga ishtiyoqmand ota-ona, oila, ayol, farzand oldidagi burchini idrok eta oladigan, katta-kichik, ko'pchilik oldida o'zini tuta oladigan madaniyatli, xulk-atvorli farzandlar tarbiyalaganlar.

Ota-ona bola tarbiyasiga mas'ul

Azaldan bola tarbiyasiga, ularning jahon talablariga mos bilim olishlariga, hunar egallashlari, har tomonlama yetuk inson bo'lib yetishishlariga ota-onalar mas'uldir. Farzandlarimiz tarbiyasidan ibo, hayo, nafislik, iffat kabi insoniy fazilatlar ko'tarilmay turib, ma'naviy merosimiz bo'lgan xalk pedagogikasiga murojaat qilib, undan oqilona foydalansak, ta'lim-tarbiya masalasida oldimizda turgan eng muhim muammolarni ijobiy hal qilgan bo'lardik.

Bizni tashvishga solayotgan bola tarbiyasidek nozik va mashaqqatli vazifani amalga oshirishda xalq pedagogikasi bizga dasturulamal bo'lishi mumkin. Respublikamizning taraqqiyot va o'zgarishlarga boy davrida yoshlarning har tomonlama kamol topishi hozirgi kunning talab va ehtiyojidir. Maktablarimiz ma'naviy yetuk, jismonan baquvvat, bilimli, o'z Vatani bilan faxrlanadigan avlodni tarbiyalashi kerak va lozim.

Bola tarbiyasida mahallaning o'rni

Ta'lim-tarbiya masalasi murakkab, keng ko'lamli masalalardan biridir. Bunday ulkan, mas'uliyatli, sharaflilik ishni oila, mahalla, maktab, keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, oila bilan mahalla axlining hamkorligini yaxshi yo'lga qo'yish o'smirlar orasida tartibbuzarlik, o'g'rilik, tanga jarohat yetkazish, nomusga tajovuz kilish, giyohvandlik va shunga o'xshash maishiy buzuvchiliklar bilan shug'ullanishning oldini olishda muhim tarbiya vositasidir. Mahallaning ustunligi shundaki bu yerda kup yillar davomida birga yashagan, bir-birini bilgan, sinagan, tanigan kishilar istiqomat qiladilar. Ular har bir oiladagi muhitni va har bir bola tarbiyasini, ota-onasini mahallada tutgan o'rin va obro'u e'tiborini, har bir oilaning mavqe-imkoniyatlarini yaxshi biladilar.

Bola tarbiyasida ota-ona va atrof-muhitning o'rni

Bolaning qanday inson bo'lib yetishuvi ota-ona tarbiyasi va atrof-muhit ta'siriga bog'liq. Bola yoshlikdan ota-onasi, o'rtoqlari, atrofidagi kishilardan ma'naviy oziq oladi, ularga tahlid qiladi, ko'pgina urf-odatlarini, xulq-odobni o'zlashtiradi. Bola tarbiyasida ularning yosh jihatiga, ruxiyat va tushunchasiga, fe'l-atvoriga alohida ahamiyat berish zarur deb hisoblaymiz.

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axlokiy tushunchalarni noto'g'ri tushunib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan, o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishini ko'rsatadi. Hatto, ular o'zlarida shakllangan ijobiy hislatlarni yo'qotishga ham harakat qiladilar. O'qituvchi va ota-onalarning asosiy vazifasi ularning noto'g'ri qarashlarini to'g'rilab borish va o'smirlarning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdir.

Komil insonning shakllanishida oilaning o'rni bekiyosdir

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, oilalarda quyidagi muammoviy holatlar yuzaga kelishi mumkin:

- oilada bolalarga muntazam salbiy ta'sir ko'rsatish muhitining mavjudligi (ota-onalarning yoki ulardan birining ichkilikboz ekanligi, faxsh yo'lidagi ota-onalar yoki katta yoshli oila a'zolarining xudbin, noijtimoiy xulk-atvorlari);
- ota-onalar orasidagi chuqur ziddiyatlarga olib keluvchi kelishmovchiliklar;
- ota-onalarning bolalarga nisbatan to'g'ri ta'sir o'tkazish vositalarini tanlay bilmasliklari oqibatidagi bolalar va ota-onalararo ziddiyatlar;
- oiladagi an'anaviy turg'un tarkibiy tuzilmaning buzilishi, ya'ni ota-onalardan birining, aksariyat holatlarda otaning oilasidan ketib qolishi.

Yuqoridagi holatlarni kengroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, salbiy axloqqa ega yoshlarning kupchiligi 1-guruh oilalariga mansub farzandlardir. Bu oilalardagi murakkab oilaviy munosabatlar boshka ijtimoiy institutlarga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatlar bilan to'ldiriladi, ushbu oilalarning ko'pgina moddiy intilishlari ijtimoiy talab va me'yorlarga mos kelmaydi.

Ichkilikbozlik, urish-so'kishlar, otaning xotiniga va bolalariga zolimlarcha munosabati - bularning barchasi bolalar va ota-onalar orasidagi sog'lom ruxiy munosabatlarning buzilishiga olib keladi, tarbiya

jarayonlari asosan tahdid va jismoniy jazolashlarda iborat bo'ladi. Ushbu oilalarning bolalari o'ta qiziqqon, jizzaki va janjalkashligi bilan ajralib turishadi. Surbetlik, aldamchilik, qo'rqqoqlik, qo'pollik, zolimlik ularga xos xususiyatlardir. Bularning orasida ko'plab uyidan ketib koluvchilar, daydilar, o'g'rilar va kup spirtli ichimlik iste'mol qiluvchilar mavjud bo'ladi. Tabiiyki, oilaviy muhitdagi erkalash, e'tibor va muhabbatning tanqisligi ana shu oqibatlarni tug'dirishi muqarrardir.

2-guruhga kiruvchi oilalarda (ota-onalar o'rtasida) madaniyat, dunyoqarash, qiziqish va his-tuyg'ularning bir-biriga mos kelmasligi natijasida ota-onalar o'rtasida doimiy ziddiyatli holatlar mavjud bo'ladi. Asosiy e'tibor o'zaro ziddiyatlarga qaratilganligi sababli, farzand tarbiyasi bilan astoydil shug'ullanish amalga oshirilmaydi, bolalar bahsli tomonlar qo'lidagi qurolga aylanadi. Ziddiyatli holatlarda ustun kelishlik uchun ota-onalar bolalarga tilyog'lamalik, xushomad qilishadi, ularni sotib olishga harakat qilishadi. O'smirlar bundan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilishadi. Ushbu oilalarning bolalari xudbin, manfaatparast, sotqin kimsalar bo'lib tarbiyalanishadi.

Shuningdek, aksariyat oilaviy ziddiyatlarning hozirgi kundagi asosiy sabablaridan biri iqtisodiy muammolardir. Respublikamizda shakllanayotgan bozor munosabatlari sharoitida oilani moddiy ta'minlash erkakning zimmasiga tushadi. Yangicha iqtisodiy munosabatlar madaniyatning hali xalqimiz tafakkurida to'la shakllanmaganligi, xalqimizning yangicha turmush sharoitlariga moslashib ulgurmaganligi bois, ko'plab ota-onalar oila u yoqda tursin, xatto o'zini ham boqa olmaydigan farzandlarini uylantirib qo'yishmoqda. Bu esa o'z navbatida yosh oilalarni hali asal oyi tugamasdanoq iqtisodiy qiyinchiliklar oqibatidagi dastlabki ziddiyatlarga, murakkab muammoviy holatlarga duchor qilmoqda. Yuqoridagiga o'xshash holatlarning oldini olish uchun nikoh qurayotgan yigitlarga oilani moddiy ta'minlashga qurbi yetgandagina oila qurishga ruxsat berish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi oilalar tarbiyaviy muhiti nosog'lom bo'lgan oilalardir. Yana shunday oilalar ham borki (3-guruh oilalari) chetdan qaraganda sog'lom muhit mavjud bo'lib ko'rinishi mumkin. Biroq, ko'pincha ushbu oilalarning farzandlari ham noto'g'ri tarbiyalangan bo'lishadi. Buning asosiy sabablari ota-onalarda pedagogik madaniyatning yetishmasligi, ta'lim darajasining pastligi va bolalar tarbiyasiga yetarlicha vaqt ajratilmasligidir. Ota-onalarda bola tarbiyalash madaniyatining yetishmasligi tufayli, ular farzandlariga bir yoqlama tarbiya berishadi.

Shuningdek, o'ta yumshoq muomalali oilalarda ham bir necha salbiy tarbiyaviy jarayonlar mavjuddir. Ota-onalar bolaning oldiga biror-bir talab qo'yishadi, lekin unga erishish uchun astoydil kurashmaydi. Natijada, bola erkatoq, tantiq va keyinchalik o'zbiarmon, tarbiasiz kimsa bo'lib yetishadi.

Keyingi vaqtlarda turli diniy oqimlarga kirib qolayotgan bolalar haqida eshitganimizda, xayron bo'lamiz, tupp-tuzuk oilaning farzandi ediku, deb o'ylaymiz. Aslida esa, bu oilalarda ham turli, yuqorida aytilgan muammolar mavjud bo'ladi va ushbu oilalar farzandlarining egri ko'chalarga kirib qolishi tasodif emas, balki kutilgan natijadir.

Bularning oldini olish, oilalardagi tarbiya jarayonlarini to'g'ri yo'nalishga boshqarish uchun, birinchi marta oila qurayotgan yoshlarga oilaviy pedagogik tarbiya madaniyatini o'rgatish kurslarini tashkil etib, bo'lgusi ota-onalarning ushbu kurslarda majburiy o'qitilishini qonun yo'li bilan ta'minlash lozim.

Oilalarda yuz berishi mumkin bo'lgan muammoviy holatlardan yana biri (4-guruh oilalari) oilada ota yoki onaning yo'qligidir. O'tkazilgan maxsus tadqiqotlarning ko'rsatishicha, qonunbuzar o'smirlarning 40%i noto'lik oila tarkibida, ya'ni otasi yoki onasi yo'q oilalarda tarbiyalangan. Ushbu oilalarning farzandlari boshqa tengdoshlariga nisbatan kamroq nazorat ostida bo'ladilar, moddiy muammolarga ham ko'proq duchor bo'ladilar. Masalan, o'g'il bolalarga o'rnak olish uchun obyekt hisoblanuvchi otaning oilada yo'qligi, ularni muammoni erkakcha hal qilishda tajribasiz yoki ayol mijozroq bo'lib tarbiyalanishiga olib keladi.

Ziddiyatli oilalar ajratib yuborilganda esa, bolaning salbiy xulqi bo'lib tarbiyalanish ehtimoli 50%ga kamayadi, ayollarning o'z joniga qasd qilishi holatining oldi olinadi. Oilaning moddiy axvoli ham bir muncha yaxshilanishi mumkin. Shuningdek, ba'zi hollarda ota yoki onaning yo'qligi oila a'zolarini yanada jipslashtirib, oilaviy tarbiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu oilalar jamoatchilikning keng e'tiborini doimo o'ziga tortib turishi tufayli, bolalar ham kuchli nazorat ostida bo'ladilar.

Tarbiyada maktab ta'limining o'rne

O'smir yoshlar tarbiasida maktab ta'limining o'rnini ham ko'rsatib o'tish lozim. Aynan maktablardagi o'quvchiga g'amxo'rlik, individual va psixalogik yondashuvlarning yo'qligi, yoshga xos ruxiy qiyinchiliklarni tushunmaslik ularni tartibsizlikni, jizzakilikni hamda qarama-

qarshiliklarni shakllantiradi. Ko'pincha o'qituvchilar til topishish kiyin bo'layotgan o'quvchilarni "tarbiyasi og'ir" va "dangasa"lar qatoriga qo'shib qo'yishadi. Ularni tarbiyalab bo'lmaydi, degan xulosaga kelishadi va mazkur o'quvchiga butunlay e'tibor bermay qo'yadi. Boshqalardan ko'ra ko'proq muammoli holatlarga va hayotiy ziddiyatlarga duch kelayotgan mazkur o'quvchilar professional pedagoglarning ham yordamidan shu tariqa mahrum bo'lib qolishadi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun ota-onalar va mahalla faollariga ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilib, amaliyotda qo'llash uchun taqdim etish lozim.

O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat - voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bo'lishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, ko'ngil ochishda ifodasini topadi. O'smir o'z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayotganini anglay boshlaydi. Bularning barchasi unda ulg'ayish hissini rivojlantiradi. Unda g'ashga tegadigan rahbarlikdan, o'rinsiz xomiylikdan, ortiqcha nazoratdan, zeriktiradigan g'amxo'rlikdan holi bo'lish istagi vujudga keladi. Mazkur jarayon o'z navbatida kattalar bilan munosabat va muloqotda noxush kechinmalarni paydo qiladi. Sinf jamoasi va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishgina kattalar bilan o'smirlar orasidagi "anglashilmovchilik g'ovi"ni yo'qotadi.

Xullas, tarbiya ishlarini hamkorlikda olib borish doimo ijobiy natija bergan. Tarbiyaning o'z vaqtida, yetarli darajada berilishi oilaning tinchligi, xotirjamligidir. Ular bir oila baxtli bo'lsa, jamiyat gullab-yashnaydi, rivojlanadi, dunyoga taniladi. Bular kuyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarini singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugungi kunda mavjud bo'lgan xurfiylik bilan birga yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya daxlsizligini milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

uchinchidan, yoshlarni baynalmilal, jahon hamjamiyatida, xalkaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat uyg'otish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

turtinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash rukida tarbiyalash - O'zbekistonda o'quvchi yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya soxasidagi islohotlar:

Birinchidan: ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga;

Ikkinchidan: insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

Uchinchidan: jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin Shaxsni shakllantirishga;

Turtinchidan: insondagi mavjud hislatlarni tula ruyobga chiqarishga;

Beshinchidan; umumiy va maxsus bilimlarga, zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan ongli, tafakkuri ozod, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi orqali yoshlar bilan ishlashda o'zaro hamkorlikning eng asosiy maqsadi, har bir bola hayotda o'z o'rnini to'g'ri topib, o'z baxtiga va hurmat-e'tiborga sazovor bo'lishiga, el oldida o'z mas'uliyatini seza oladigan, insonparvar shaxs bo'lishiga qaratilgan.

Oila, mahalla va ta'lim muassasasi orqali yoshlar bilan ishlashda o'zaro hamkorlik qilishda taraqqiyotimizning ma'naviy-axloqiy negizi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi e'tirof etiladi. Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo totuvlik muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy ongliklik, milliy odob, fidoyilikdek fazilatlar shakllantiriladi, shuningdek huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, gigiyenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirishda oila, mahalla va maktab hamkorligi juda muhimdir. Oila, mahalla va maktabning vazifalari, o'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari, hamkorlik ishlarini amalga oshirish mexanizmi berilgan.

Maktablarda va mahallalarda hamkorlik kengashini tuzish tizimi berilib, uni hayotga tatbiq etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Barkamol avlodni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi muhim bo'lib uni amalga oshirish jarayonida oilaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- oilada sog'lom muhitni yaratish, milliy rux va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish, o'zaro g'amxo'r bo'lishni ta'minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a'zolarining o'z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta'minlash;
- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma'rifatli va ma'naviyati yuksak kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;
- bozor munosabatlariga mos bo'lgan kasb-hunar o'rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
- bolalarning ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun ma'naviy va ijtimoiy muhitni yaratish;
- bolalarni mustakil fikrlashga o'rgatish, istiqlool g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- bolalarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtayi nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;
- farzandlarida mavjud bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o'z farzandlarining maktab, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to'la ado etishlari uchun oilada mas'uliyatli bo'lish;
- farzandini komil inson etib tarbiyalashda ota-ona huquqiy, tibbiy, pedagogik, psixologik savodxonligini va bilim darajasini doimo oshirib borishi va bu yo'nalishlarda o'z madaniyati yuksak darajada bo'lishiga erishish;
- bolalarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma'naviy-axlokiy tomonlarini shakllantirish;
- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini uyg'un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishni ta'minlash;
- sanitariya-gigiyenik, ekologik bilim va ko'nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;
- ota-onaning maktab va mahalla oldida o'z farzandlarining barcha xatti-harakatlari uchun javobgarligini his qilishga erishish;

- farzandini oilaviy hayotga tarbiyalashda ajdodlardan o'tib kelayotgan boy ma'naviy meros, axloq-odob, urf-odat va an'analarni bugungi kun bilan uyg'unlashgan holda keng foydalanish va singdirib borish;
- jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-hunar o'rgatish;
- ota-onaning farzand oldidagi burchi, o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilmi, kasb-hunarli, oilali va uyli-joyli qilish;
- oilada rekreativ funktsiyaning bajarilishiga rioya qilishni ta'minlash (oilaning "rekreativ" - o'zaro jismoniy, moddiy, ma'naviy va psixologik yordam ko'rsatish, bir-birining salomatligini mustahkamlash, oila a'zolari dam olishini tashkil etish funktsiyasidir);
- oilada ijobiy psixologik muhitni yaratishda ota-onalarning psixologik savodxon bo'lishlarini ta'minlash;
- oilada turli muammoli vaziyatlarni oqilona hal etishda yoshlarni muloqot, muomala, tinglash san'atiga o'rgatish;
- oilada o'zaro ota-ona va farzand munosabatlarini mustahkamlashda turli oilaviy "boshqotirma", "bayt aytish", "maqollar mazmunini chaqish", "ona yurt" kabi o'yinlarni tavsiya etishdan iborat.

Ma'naviy hayotimizni yuksaltirish haqida gapirganda, mahallaning roli va ta'siri xususida to'xtalish albatta o'rinlidir. Ma'lumki, azaldan o'zbek mahallalari chinakam milliy qadriyatlar maskani bo'lib keladi. O'zaro mehr-oqibat, aqillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kishilar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, tuy-tomosha, hashar va ma'rakalarni ko'pchilik bilan bamaslahat o'tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo'lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an'alar avvalambor mahalla muhitida shakllangan va rivojlangan. Xalqimizga xos o'zini o'zi boshqarish tizimining bu noyob usuli qadim-qadimdan odamlarning nafakat tilida, balki dilida, butun hayotida chuqur joy egallagani bejiz emas. Biz "Mahalla - ham ota, ham ona" degan hikmatli naqlni ana shu hayotiy haqiqatning ifodasi sifatida qabul qilamiz.

Mahalla haqida gapirganda, kupchilik ana shunday chuqur ma'noli so'zlarni eslashi va tilga olishi tabiiy. Ular shu tariqa nainki o'zlarining dardu tashvishlarini hal qiladigan ta'sirchan ijtimoiy fuqarolik irodasi, ayni vaqtda ona yurt ramzi bo'lgan mahallaga o'zining munosabatini izhor etadi.

5. Internet tahdidlari (ota onalar uchun eslatma)

Internet tahdidlar tushunchasi

Oxirgi 30-40 yil ichida Internet tarmoqlari va ular bilan ishlash vositalari misli ko'rilmagan darajada rivojlandi hamda har bir honadonga kirib uning ajralmas qismi bo'lib qoldi. Internet shunchaki axborot almashuvchi vosita sifatida paydo bo'lgan bo'lsa keyinroq uning imkoniyatlari ortib ushbu vositalardan boshqaruvda, ta'limda, transportda, turli servis xizmatlarida foydalana boshladilar. Bu xolat insonlarga ancha yengillik yaratib, ishlarini tezlashtirib, vaqtlarini tejashga imkon berdi. Natijada, internet butun dunyo bo'ylab taralgani, undan barcha insonlar samarali foydalanish imkoniga ega bo'ldi.

Internetni butun dunyo bo'ylab tarqalgani uni chegaralab qo'yishning imkoni yo'qligidan ayrim firibgar, axloqsiz insonlar o'zlarining g'arazli maqsadlarida foydalana boshladilar. Internetda terrorizm, pornografiya, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar, tekshirilmagan har qanday axborotlar oqimi internet orqali kuchayyapti, onlayn o'yinlar va chatxonalar yoshlar ongini egallab olib, vaqtlarini bekorchilikka ketkazmoqda.

Internet tahdid turlari

Internetdagi tahdidlar kun sayn ko'payib boryapti desak mubolag'a bo'lmaydi. Tahdidlar ichidan eng keng tarqalgan va bugunki kunda eng xavflisi hisoblanglarni ko'rib chiqamiz:

Internetga qaramlik.

Kiberhujum va trolling.

Terrorizm, natsizm, tajovuzni targ'ib qilish.

Odobsiz til, odobsizlik, qo'pollik.

Spiritli ichimliklar, giyohvand moddalar, tamaki....

18 + toifasidagi saytlar. ...

Lotereyalar, kazinolar, tanlovlar.

Internetga qaramlik

Internetga qaramlik – bu bolaning onlayn faoliyat bilan haddan tashqari band bo'lgan va bu faoliyatni nazorat qila olmaydigan holat. Bolalarda bu holat ko'pincha o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar, videolarni tomosha qilish yoki onlayn xarid qilish kabi faoliyatlar atrofida bo'lishi

mumkin. Internetga qaramlik bolaning normal ijtimoiy, aqliy va jismoniy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Bolalarda internetga qaramlikning belgilari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

Haddan tashqari vaqt sarflash: Bola ko'p vaqtini internetda o'tkazadi va bu vaqtni nazorat qila olmaydi.

Ijtimoiy izolyatsiya: Haqiqiy hayotdagi ijtimoiy munosabatlarni kamaytirish tendentsiyasi.

Aqliy muammolar: Maktabda o'zlashtirishning pasayishi, diqqat yetishmovchiligi va o'rganishda qiyinchiliklar.

Jismoniy salomatlik muammolari: Ko'zning zo'riqishi, bosh og'rig'i, bo'yin og'rig'i va uyqu muammolari.

Ruhiiy salomatlik muammolari: Stress, tashvish, depressiya va g'azab muammolari.

Haqiqatdan uzilish: Onlayn dunyoda yashashga haddan tashqari e'tibor qaratish va real hayot bilan aloqani yo'qotish.

Nazoratni yo'qotish: Internetdan foydalanishni nazorat qilishda qiyinchilik va mas'uliyat hissining pasayishi.

Kiberhujum va trolling

Kiberhujum – bu internetda ongni zaharlash. Odatda bu elektron pochta yoki onlayn suhbat shaklida surat va videokliplardan foydalangan holda matnli xabar jo'natish, qo'ng'iroq qilish orqali sodir etiladi. Statistika ko'ra, bunday hujum holatlarining aksariyati ijtimoiy tarmoqlarda sodir etiladi. Umuman olganda, kiberhujum tamoyili oflayn ta'sir o'tkazish shakliga o'xshaydi, ammo u psixologik jihatdan jabrlanuvchi ko'proq azob chekishi tufayli yanada xavfli hisoblanadi.

Terrorizm, natsizm, tajovuzni targ'ib qilish

O'zlarini "yaqin do'st" yoki "hidoyatga chorlovchi" sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmokda. Mafkuraviy tahdidlar yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda. Buzg'unchi mafkuralar yoshlarning aynan ma'naviy bo'shliqlaridan foydalanishadi. Keyingi paytlarda internet bilan bog'lik buzg'unchiliklar, global tarmokdan qabih maqsadda

foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Bu bilan ular yer yuzida fasod urug'ini sochish, urush o'choqlarini yoqish, fitna tarqatishga yo'l urganlar. Aksariyat hollarda ekstremistik va terrorchi guruhlariga qo'shilishning sababi etib, masalan, buzg'unchi guruhlariga yollovchining Internetdagi faolligi yoki kishida diniy ma'lumotlarning etishmasligi kabi omillar ko'rsatiladi.

Odobsiz til, odobsizlik, qo'pollik

Internetdagi odobsiz til, odobsizlik, qo'pollik qo'yidagi saliy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

qisqartma so'zlarni qo'llashi til savodhonligini pasayishiga;
neytral(jargon) so'zlarning qo'llashi o'zbek tilimizdagi milliy, o'zimizga xos, yorqin so'larni iboralarni esdan chiqarishga;
muloqotni "ibtidoiy" muloqotga qisqartirish, tilni haddan tashqari soddalashtirishga;

odobsiz , shablon so'zlardan foydalanish og'zaki va yozma nutqning qashshoqlashishiga

so'zlarning me'yoriy yozilishi va talaffuzida qiyinchiliklarga olib keladigan jargondan foydalanish odatini rivojlantirishga;

Lotereyalar, kazinolar, tanlovlar

Internet lotereya va kazinolarga qo'yidagi saliy oqibatlarga olib keladi:,
o'z-o'zini hurmat qilish sohasidagi buzilishlar ("narsisizm");
shaxslararo munosabatlar sohasidagi buzilishlar;
o'z o'zini boshqarish, tartibga solishning holatlarini buzilishi.

Internet tahdidlardan himoyalanish tavsiyalari

Bugungi kunga kelib anglab turibmizki, Internetdagi tahdidlarga qarshi kurashish har bir ota-onaning dolzarb vazifasi ekan. Eng avvalo ota-ona farzandlarning yoshidan qat'iy nazar nazoratsiz qoldirmaslik kerak.

Farzandlari maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshida bo'lsa qanday o'yinlar o'ynashi, bu o'yinglarga qancha vaqt sarflashi bilan qizikishi shart deb o'ylaymiz. Ushbu yoshdagi bolalarga Internetdan foydalanish vaqtlarini chegaralash lozim. Ularni ko'prok vaqtini jonli o'yinlarga jalb qilishi yoki ular bilan sayr qilish maqsadga muvofiqdir.

Agar farzandlari o'rta maktab yoshida bo'lsa ularning qizikishini, Internetdan qanday foydalanishi, qaysi saytlarga kirishi va ular to'g'risida qanday fikrga egaligi haqida suhbat o'tkazishi kerak deb hisoblaymiz. Ularni qiziktirish uchun ularga savollar berib ushbu savollarga Internet

manbalardan foydalanishni tavsiya qilish va olingan natijalarni birga kurib chikib, kerak bo'lsa raxbanlantirish maqsadga muvofiqdir.

Farzandlari maktabning katta sinflarida bo'lsa Internet imkoniyatlaridan foydalanib ularni kasb tanlashga yoki xunar o'rganishga jalb qilish kerak. Nima bo'lganda ham ota-ona farzandlarni tinglash va xulosalar qilish va kerakli maslahatlar berish. Chunki farzanlariz siz va boshqa mutaxassislar tomonidan Internet xavfsizligi bo'yicha berilayotgan ma'lumotlarni tinglab, o'ziga yetarli xulosa chikara olsa, Internetdan xavfsiz foydalalanadi.

**O'QUVCHILARDA "HUQUQBUZARLIKKA QARSHI
IMMUNITET"NI SHAKLLANTIRISHDA "MAKTAB - OTA-ONA -
MAHALLA" HAMKORLIK ZANJIRINI YARATISH BO'YICHA USLUBIY
TAVSIYALAR**

Muharrir:

Musahhih:

Kompyuter sahifalovchi: U.Valijonova

Bichimi 60x84 ^{1/16}. Times New Roman garniturasida.

Ofset bosma. 00 shartli bosma taboq.

00 nashr bosma tabog'i. Adadi 0000 nusxa.

Bahosi shartnoma asosida.

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290.04.2016

2024-yil 20-sentabrda nashrga ruxsat berildi.

G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.

100128 Toshkent, Labzak ko'chasi, 86.